

O‘ZBEKISTON VA TURKMANISTON O‘RTASIDAGI AZALIY DO‘STONA ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHGA XIZMAT QILADIGAN SAMARALI MULOQOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov 23-24-aprel kunlari tashrif bilan Samarqand shahrida bo‘ldi.



Tashrif doirasidagi asosiy tadbirlar 24-aprel kuni bo‘lib o‘tdi. “Buyuk ipak yo‘li” majmuasi Kongress markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov tor doirada va rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o‘tkazdilar.

Uchrashuv avvalida Turkmaniston yetakchisi davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Ko‘p qirrali hamkorlik barcha yo‘nalishlarda, shu jumladan, siyosiy, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalarda jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuhiyat bilan qayd etildi.

Barcha darajalarda samarali muloqot olib borilmoqda. Hukumatlararo komissiya yig‘ilishlari, Ishbilarmonlar kengashi, Hududlar forumi, madaniyat kunlari, ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda. O‘tgan yili o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 1,1 milliard dollarni tashkil etdi. Poytaxtlarda savdo uylari ochilib, yuk tashish hajmi oshmoqda. Yaqin yillarda tovar ayirboshlashni 2 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Energetika, transport, qishloq va suv xo‘jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida

o‘zaro manfaatli kooperatsiya rivojlanmoqda. Birgalikda “Shovot-Toshovuz” chegarao‘ldi savdo zonasi tashkil etilmoqda.

Faol hududlararo muloqotlar yo‘lga qo‘yilgan, madaniy-gumanitar almashinuv bo‘yicha katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilda Xiva shahrida uchinchi Hududlar forumini hamda O‘zbekistonda Turkmaniston madaniyati kunlarini o‘tkazishga kelishib olindi.

O‘zbekiston va Turkmaniston yetakchilari mintaqaviy sheriklikka doir masalalar, shu jumladan, “Markaziy Osiyo plyus” formatidagi bo‘ljak sammitlar va Toshkent shahrida o‘tkaziladigan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan fikr almashdilar.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan e‘lon qilingan “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” doirasida joriy yil dekabr oyida Ashxobod shahrida o‘tkaziladigan forum va boshqa xalqaro tadbirlar muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidladi.

Uchrashuvda O‘zbekiston Prezidenti Turkman xalqining milliy yetakchisiga uning qalamiga mansub “Tafakkur gavhari” kitobining o‘zbek tilidagi nusxasini topshirdi.

Ikki tomonlama muzokaralar yakunida Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga O‘zbekiston Respublikasining yuksak davlat mukofoti — “Oliy Darajali Do‘stlik” ordenini tantanali topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari mukofotini topshirar ekan, Gurbanguli Berdimuhamedovning qardosh mamlakatlarimiz o‘rtasidagi an‘anaviy do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashdagi ulkan xizmatlarini e‘tirof etdi.

— Qardosh Turkmanistonning barcha ulkan yutuqlari, keng ko‘lamli yangilanishlari va xalqaro maydondagi nufuzi yuksalishi Sizning nomingiz bilan chambarchas bog‘liq, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Turkmanistonda iqtisodiyotning barqaror o‘sishi ta‘minlanmoqda, aholi farovonligi izchil yuksalmoqda.

Prezidentimiz Turkman xalqining milliy yetakchisi tomonidan ilgari surilayotgan global xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta‘minlash yo‘lidagi xalqaro tashabbuslarni alohida qayd etdi. Gurbanguli Berdimuhamedovning shaxsiy sa‘y-harakatlari tufayli O‘zbekiston — Turkmaniston munosabatlari bugungi kunda yuksak darajaga chiqqani, haqiqatan namunaviy tus olgani ta’kidlandi.

— Shaxsan Sizning ko‘magingiz bilan 2017-yilda davlatlarimiz strategik sherikligining mustahkam asosi yaratildi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatlarimiz parlamentlari, hukumatlari, hududlari, ishbilarmonlari, jamoatchiligi, ziyolilari va yoshlari o‘rtasida

faol muloqotlar, savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha dastur va loyihalar amalga oshirilayotgani mamnuhiyat bilan qayd etildi. Madaniy-gumanitar hamkorlik yuksak e‘tirofga loyiq. Masalan, o‘tgan yili Ashxobod va Toshkentda Maxtumquli asarlarining o‘zbek tilidagi to‘plami taqdimot qilindi, shuningdek, Ashxobod xalqaro kinofestivalida o‘zbek-turkman badiiy filmining premyerasi bo‘lib o‘tdi.

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov ko‘rsatilgan yuksak hurmat va ehtirom uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev va o‘zbek xalqiga minnatdorlik izhor etdi. Azaldan qardosh bo‘lib, yaqin qo‘shnichilik an‘analari asosida yashab kelayotgan o‘zbek va turkman xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik, hamkorlik bundan buyon ham mustahkamlanishi, bu ezgu ishga hissa qo‘shish u uchun sharaflar ekanligini ta’kidladi.

Marosimda so‘zga chiqqanlar Gurbanguli Berdimuhamedovga O‘zbekiston Respublikasining oliy mukofoti topshirilishi ko‘p millatli xalqimizning atloqi davlat arbobi, bugungi Turkmanistonning milliy yetakchisi va me‘mori sifatida unga nisbatan samimiy hurmat-ehtiromi ifodasi bo‘lganini ta’kidladilar.

Rasmiy tadbirlar yakunlangach, Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov Kongress markazining Faxriy mehmonlar xiyobonida birgalikda eman daraxтини ekdilar.

Marosim ikki qardosh xalq o‘rtasidagi ko‘p asrlik mustahkam do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari, O‘zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish borasidagi qat‘iy intilishning ramzi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan birga Samarqanddagi xalqaro turizm markazida tashkil etilgan “Zamonlar sadosi” ko‘rgazmasiga tashrif buyurdilar.

Mehmonlarga ko‘rgazmaning asosiy qismi — tungi sahro manzarasi namoyish etildi. Yulduzli osmonda burjlar, Mirzo Ulug‘bek xaritasi va meridianlar namoyon bo‘ladi.

Tomoshabin xuddi Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab harakatlanayotgan karvon kabi qum tepaliklar orasidan o‘tadi. Yo‘l bo‘ylab insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi yoritib boriladi.

Yo‘lda turkman o‘tovi uchraydi. Turkman baxshisining qo‘shig‘i yangraydi.

O‘zbek va turkman ayollari, biri so‘zana tiksa, ikkinchisi turkman gilamini to‘qiydi.

Ustalar va bunyodkorlar shahrida rassomlar, hunarmandlarning nozik did va yuksak mahorat bilan yaratilgan ijodiy asarlari namoyon bo‘ladi.

O‘zbek va turkman san‘atkorlari ijrosida dutor va tanbur chalindi, buyuk shoirlar Alisher Navoiy va Maxtumquli g‘azallari o‘qildi.

Innovatsion taqdimotda maxsus jilolar va teatrlashtirilgan sahnalar keng qo‘llanilgani mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Aytish mumkinki, mazkur ko‘rgazma — birodarlik tarixi, o‘tmishdan dars olib, kelajakni hamkorlikda qurish sari chaqiriq. Xalqlarni yaqinlashtirish uchun ko‘proq ko‘priklar kerak bo‘lgan bir paytda ana shunday ekspozitsiya orqali qo‘shni mamlakatga “Bizni faqat tarix emas, balki umumiy kelajak birlashtiradi”, deya olish — yuqori diplomatiya namunasidir.

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning yurtimizga amalga oshirgan tashrifi yakunlandi. Oliy martabali mehmonni Samarqand xalqaro aeroportida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kuzatib qo‘ydi.

Hech shubhasiz, Turkman xalqi milliy yetakchisining mamlakatimizga tashrifi va davlatimiz rahbari bilan o‘tkazgan samarali muzokaralari O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishga hamda azaliy qardosh o‘zbek va turkman xalqlarining do‘stona aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
G‘olib HASANOV,
O‘ZA maxsus muxbirlari

O‘ZBEK – TURKMAN MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI MINTAQAVIY TINCHLIK VA XAVFSIZLIK ARXITEKTURASIGA QO‘SHILGAN HISSA

O‘zbekiston va Turkmaniston yetakchilarining Samarqandda bo‘lib o‘tgan uchrashuvi yakunlariga xorijdan munosabat



23-24-aprel kunlari Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi.

Samarqand shahridagi “Buyuk ipak yo‘li” majmuasining Kongress markazida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqi milliy yetakchisining ikki tomonlama muzokaralari bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

► Davomi 2-betda



MARKAZIY OSIYO BIRLIGI, SIYOSIY IRODA, O'ZARO ISHONCH VA QO'SHMA TASHABBUSLAR

Yirik iqtisodiyotga ega davlatlar o‘rtasida boshlangan savdo urushlari o‘zaro nizolashuv va qurolli to‘qnashuvlar tufayli o‘zi shundoq ham qaltis bo‘lib turgan vaziyatni battar murakkablashtirmoqda. Bu nafaqat rivojlangan, balki barqaror taraqqiyot yo‘liga o‘tayotgan mamlakatlar uchun ham g‘oyat xatarli.

Dunyoning hozirgi umumiy iqtisodiy holati uzun qorong‘i yo‘lakka o‘xshaydi. Nari borsa, 2-3 qadamlik masofani ko‘rish mumkin, undan nariyog‘ida nima bor-yo‘qligi, nima kutayotgani mavhum. Bu shunday holatki, yo‘lning yorug‘ bo‘lishini, mavhumlik tarqalishini kutadigan payt emas. Dunyo muvozanati qayta qurilayotgan hozirgi sharoitda yangi va istiqbolli yo‘llarni, bu yo‘lda ishonchli hamkor va hamrohlarini izlab topadigan, barqaror taraqqiyot uchun zamin yaratadigan fursat.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida boshlangan shiddatli va ortga qaytmass islohotlar, faol tashqi siyosat ayni qorong‘i yo‘lni yorituvchi mayoq bo‘layotgani bilan ahamiyatli.

BARQAROR TARAQQIYOT UCHUN QULAY SHAROIT YARATMOQDA

Masalan, joriy yil 3-4-aprel kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitida erishilgan kelishuvlar, ahdomalar, bitimlar hanuzgacha ekspert va mutaxassislar orasida qizg‘in muhokama qilinmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki mazkur sammit Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston uchun xalqaro siyosiy maydonda muhim burilish nuqtasi o‘laroq, ko‘p tomonlama munosabatlarda yangi sahifa ochdi.

Zero, global iqtisodiy-siyosiy murakkab vaziyatda Markaziy Osiyoga qiziqish ortib boryapti. Mana shunday sharoitda Yevropa Ittifoqi barqaror rivojlanish, manfaatdorlik, o‘zaro bog‘liqlik va sarmoyaviy jozibadorlik tamoyillari asosida mintaga bilan hamkorlikni kengaytirishga intilishini namoyish etdi. O‘zbekiston uchun mazkur mashvartat Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish, sarmoya va texnologiyalarni jalb qilish, jahon miqyosida o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun noyob imkoniyat bo‘ldi, desak yangilishmagan bo‘lamiz.

Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyoning asosiy uchta tashqi savdo hamkoridan biri. Bundan tashqari, mintaga mamlakatlariga yo‘naltirilgan barcha sarmoyaning 40 foizdan ortig‘i Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Endi Yevropa va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo-sotiq tezlashadigan bo‘ldi. Avvalgidek mahsulotlarni tashish uchun bir necha oy sarflashning zarurati yo‘q. Boz ustiga, Yevropa Ittifoqi mintaqamizga sarmoyasini kamaytirmaydi, aksincha, ko‘paytirish niyatida.

Samarqandda bo‘lib o‘tgan muhokamalarda kommunikatsiyalar, muhim xomashyo sohasidagi hamkorlik, atrof-muhit muammolari, suv resurslari, iqlim o‘zgarishi va albatta, yaqin atrofimizdagi xavfsizlik bo‘yicha hamkorlik haqida so‘z bordi. Ayni mavzular bugun har ikki tomonni o‘ylantirayotgan, hamkorlikka chorlayotgan dolzarb masalalardir.

► Davomi 3-betda

IQTISODIYOTNING IKKI QANOTI GLOBAL INQIROZNING UCHINCHI TO‘LQINI RO‘Y BERADIMI?

Davlatni ko‘kdagi qush deb tasavvur qilsak, iqtisodiyot uning quvvati. Qushning osmonda uzoq vaqt, baland uchishi manbai mana shu kuch-qudrat, eksport va import esa qushning ikki qanotidir. Bu ikki qanotning qanchalik sog‘lom ekani, naqadar faol harakatda bo‘lishi qushning kuchiga kuch qo‘shadi, parvozi yanada yuksak va barqaror bo‘lishini ta‘minlaydi. Shu bois, mamlakatlar tinimsiz iqtisodiyotni ko‘tarish, eksport va importni faollashtirish uchun turli islohotlar, o‘zgarish va yangilanishlarni amalga oshirib keladi.

► Davomi 4-betda



DINIY-MA’RIFIY SOHADAGI ISLOHOTLARNING YANGI BOSQICHI: HUQUQ VA IMKONIYATLAR



Nuqtayi nazar

Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta konfessiya vakillari bag‘rikenglik tamoyili asosida tinch-totuv yashab kelmoqda. 2174 ta islomiy va 198 ta noislomiy diniy tashkilot faoliyat ko‘rsatyapti.

So‘nggi sakkiz yilda O‘zbekistonda jami 130 ta – 3 ta oliy va 1 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti, 102 ta masjid hamda turli konfessiyaga taalluqli 24 ta noislomiy diniy tashkilot davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Joriy yil 25-fevral kuni qabul qilingan qonun asosida tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarga huquqiy asos bo‘lib xizmat qilyapti.

Mazkur hujjat vijdon erkinligiga bo‘lgan huquq va O‘zbekiston dunyoviy davlat ekaniga oid konstitutsiyaviy qoidalarni ro‘yobga chiqarish hamda diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi, vazifalari, prinsip va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

O‘tgan qisqa vaqt ichida mamlakatimizda O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Samarqandda Hadis ilmi maktabi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi tashkil etildi.

2017-yilga qadar mamlakatimizda 3 ta oliy (1 ta islomiy, 2 ta noislomiy) hamda 9 ta o‘rta maxsus diniy ta‘lim muassasasi faoliyat yuritgan. Bugun esa 16 ta diniy ta‘lim muassasasi bor, ularning 6 tasi oliy o‘quv yurtidir.

Mazkur sohadagi ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning joriy yil 21-apreldagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma‘rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni nafaqat diniy-ma‘rifiy soha, balki keng jamoatchilik tomonidan ham mamnuniyat bilan kutib olindi.

Hujjatda diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari — jamiyatda diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni yanada mustahkamlashga oid ilg‘or mexanizmlarni joriy etish, ilm-fan va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarning insonparvarlik, ezigulik, tinchlik va bag‘rikenglik kabi umuminsoniy va olijanob g‘oyalarga asoslangan diniy-falsafiy merosini chuqur o‘rganish hamda keng targ‘ib etish belgilangan.

Shuningdek, sohada kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, aholi orasida birdamlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat ruhini kuchaytirish, ijtimoiy-ma‘naviy



Sodiq TOSHBAYEV,
Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi

muhit barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan dolzarb ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish vazifalari ko‘rsatib o‘tilgan.

“

Hujjatda belgilangan vazifalardan anglash mumkinki, mamlakatimizda “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan xalqchil tamoyilga asoslangan islohotlar diniy-ma‘rifiy sohada ham tizimli ravishda kechmoqda.



O‘ZBEK – TURKMAN MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI MINTAQAVIY TINCHLIK VA XAVFSIZLIK ARXITEKTURASIGA QO‘SHILGAN HISSA

Boshlanishi 1-betda

Ko‘p qirrali hamkorlik barcha yo‘nalishlarda, shu jumladan, siyosiy, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalarida jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, xalqaro tahlil va ekspert doiralari vakillari Turkman xalqi milliy yetakchisining Samarqandga tashrifi va ikki qo‘shni davlat hamda qardosh o‘zbek va turkman xalqlari o‘rtasidagi tarixiy rishtalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan samimiy muloqotni yuksak baholamoqda.

Yan Chen,
Shanxay xorijiy tillar universitetining
Shanxay Global boshqaruv va
hududiy tadqiqotlar akademiyasi
direktori, professor:

— Hozirgi bosqichda O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi munosabatlar do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat tamoyillari asosida muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan ochiq va ishonchli muloqot ko‘p qirrali O‘zbekiston — Turkmaniston strategik sherikligini mustahkamlashning asosidir.

Ikki qardosh xalq o‘rtasidagi munosabatlarning bugungi darajasiga Prezident Shavkat Mirziyoyev va Milliy yetakchi Gurbanguli Berdimuhamedovning mustahkam siyosiy irodasi va birgalikdagi sa‘y-harakatlari poydevor yaratdi. Bu sa‘y-harakatlar ikki davlat kun tartibidagi ko‘plab fundamental masalalarni hal etishda asosiy omil bo‘lmoqda.

Oliy darajadagi o‘zaro aloqalar mamlakatlarining konstruktiv siyosiy muloqotni yanada mustahkamlash va o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga intilishining yorqin dalilidir.



Xitoy O‘zbekiston va Turkmanistonning chegaradosh viloyatlari o‘rtasida intensiv hamkorlikning rivojlanishi, transport sohasida maqsadli loyihalar amalga oshirilayotganini muhim deb hisoblaydi. Ikki davlatning integratsiyalashgan avtomobil va temir yo‘llari uchinchi mamlakatlar uchun tranzit vazifasini bajaryapti, shuningdek, sohadagi yirik loyihalarni amalga oshirishda o‘zaro hamkorlik kuchaymoqda.

Rasmiy Toshkent va Ashxobod Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta‘minlashga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ikki davlat



o‘rtasida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini boshqarish sohalarida uzoq muddatli konstruktiv hamkorlik izchil rivojlanayapti.

Ikki tomonlama munosabatlarning yana bir muhim yo‘nalishi transport-tranzit sohasidir. Transport-logistika aloqalarining rivojlanishi hamkorlik jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Ikki davlat o‘rtasidagi transport aloqalarining integratsiyalashuvi uchinchi mamlakatlar va mintaqalar bozorlariga tez chiqish imkonini beradi. Tomonlar O‘zbekiston — Turkmaniston — Kaspiy — Kavkaz transport yo‘nalishi imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishga intilyapti. Ushbu koridor Gruzia va Turkiyaning Qora dengiz portlariga, shuningdek, Yevropa Ittifoqi bozorlariga chiqishni ta‘minlash uchun mo‘ljallangan.

Zafar Navoz Jaspal,
Pokistondagi Qaid-i Azam
universitetining siyosat va
xalqaro munosabatlar fakulteti
dekani, professor:

— Turkman xalqi milliy yetakchisining O‘zbekistonga bu galgi tashrifi Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadamdir.

Pokiston Janubiy va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi mintaqalararo o‘zaro bog‘liqlik va savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning faol tarafdori bo‘lgan holda mintaqa barqarorligi va farovonligidan manfaatdor. Pokiston jamoatchiligi O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi munosabatlarning yanada yaqinlashishini katta qiziqish bilan kuzatmoqda.

Birinchidan, rasmiy Toshkent va Ashxobod o‘rtasidagi strategik muloqot

darajasi hayratlanarlidir. Oliy darajada o‘tgan muzokaralar tomonlarning nafaqat munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgan siyosiy irodasi, balki ularning chegaroldi savdosini rivojlantirishdan tortib, madaniy almashinuvga bo‘lgan amaliy yo‘nalishni ham namoyon etdi. Pokiston bu tashabbuslarni Markaziy Osiyoda barqaror tinchlik va iqtisodiy o‘shining muhim elementlari sifatida baholaydi, bu esa, o‘z navbatida, ulamning Janubiy Osiyo davlatlari bilan siyosiy muloqotlarida o‘z aksini topadi.

Pokistonlik ekspertlarning fikricha, mintaqadagi ana shunday tashabbuslar uchun namuna bo‘la oladigan “Shovot-Toshovuz” chegaraldoli savdo zonasini yaratish bo‘yicha hamkorlikdagi ishlar alohida qiziqish uyg‘otadi. Pokiston mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konsepsiyasini ilgari suruvchi davlat sifatida transchegaraviy o‘zaro hamkorlikning bunday shakllarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, transport va logistika sohasidagi

uzviylik tamoyillarini ta‘minlash, diniy mavzuda respublikaning barcha ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bajariladigan tadqiqotlar mavzu va yo‘nalishlarining ahamiyati, dolzarbligi yuzasidan tegishli tavsiyalarni berish ham kengash vazifasi hisoblanadi.

Farmonga binoan, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi etib qayta nomlandi.

Akademiya islomshunoslik va dinshunoslik sohalarida mutaxassislar, o‘quv dasturi, qo‘llanma va darsliklarni tayyorlashga ixtisoslashgan tayanch davlat oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi bo‘ladi. Uning asosiy vazifalari etib islomshunoslik, dinshunoslik, din psixologiyasi, islom iqtisodiyoti, manbashunoslik, xalqaro munosabatlar va ehtiyoj mavjud bo‘lgan boshqa sohalar bo‘yicha kadrlar tayyorlash belgilandi.

Shu bilan birga, ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar, ilm-fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari hamda yetakchi xorijiy oliy ta‘lim tashkilotlari tajribasi asosida ishlab chiqilgan ta‘lim dasturlarini joriy etish, qolaversa, vijdon erkinligi va konfessiyalararo bag‘rikenglikni ta‘minlash, radikalashuv, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish hamda diniy sohadagi davlat siyosatining asoslariga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish ham akademiyaning vazifasidir.

O‘z navbatida, diniy-ma‘rifiy yo‘nalishda ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar tayyorlash va nashr qilish, shuningdek, internet tarmog‘ida ta‘lim resurslarini joylashtirish va mintazam yangilab borish, talabalarda yuksak ma‘naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik, kasbga sadoqat hissini mustahkamlash, ta‘lim-tarbiya jarayoni hamda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish ham akademiyaning asosiy vazifalari sirasidan.

Farmon asosida akademiyaga o‘quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan yuqori malakali xorijiy mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilash, yetuk xorijiy mutaxassislarni jalb qilish hamda akademiya vakillarini xorijiy ilmiy-tadqiqot va ta‘lim muassasalariga malaka oshirish va tajriba orttirish uchun yuborish, o‘z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish kabi huquqlar ham berildi.

Hujjatda belgilangan vazifalardan anglash mumkinki, mamlakatimizda “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan xalqchil tamoyilga asoslangan islohotlar diniy-ma‘rifiy sohada ham tizimli ravishda kechmoqda.

Bu esa yurtimizdagi turli din va millat vakillarining o‘zaro hamjihatlik, ahilik, mehr-oqibatda yashashiga, pirovardida mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikning yanada mustahkamlashiga asosdir.

Mazkur farmon yurtimiz fuqarolarining vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma‘rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish yo‘lida o‘z vaqtida qabul qilingan muhim va zaruriy hujjat bo‘ldi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official

"МАРКАЗИЙ ОСИЁ - ЕВРОПА ИТТИФОҚИ"

БИРИНЧИ САММИТИ

SAMARQAND
IQLIM FORUMI
4-5 APREL 2025

Yangi O'zbekiston ruhi

MARKAZIY OSIYO BIRLIGI, SIYOSIY IRODA, O'ZARO ISHONCH VA QO'SHMA TASHABBUSLAR



Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Bu qiziqishning asosiy sabablaridan yana biri dunyoda davom etayotgan geosiyosiy beqarorlikdir. Xalqaro maydondagi qarama-qarshilik Markaziy Osiyo mintaqasiga qiziqishni oshirmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun o'z milliy manfaatlarini himoya qilishda ko'p qirrali tashqi siyosat yuritish maqsadga muvofiq. Mintaqamiz tobora integratsiyalashayotgan ekan, "Markaziy Osiyo" formatidagi muloqotlarning o'ni katta deb o'ylayman.

Bu muloqot formati davlatimiz rahbarining tashabbusi va mintaqa yetakchilarining siyosiy irodasi bilan faol ishga tushdi. Keyingi yillarda u chinakam integratsion platformaga ega bo'la boshladi. Bugun esa har yili xalqaro maydonding yetakchi tomonlari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Bu barcha geosiyosiy kelishmovchiliklarga nisbatan Markaziy Osiyo davlatlarining pozitsiyasi o'shashligi bilan bog'liq: mintaqadagi barcha davlat keskinlikni kamaytirish va mamlakatlar o'rtasidagi nizolarni diplomatik tarzda hal etish tarafdori. Buning asosiy sababi bor: qit'aning ichida joylashgan, dengizga chiqish imkoniyati yo'q, lekin ayni paytda ikki geosiyosiy gigant bilan chegaradosh, Yevropa Ittifoqi va AQSH bilan juda yaqin savdo-iqtisodiy va siyosiy aloqalarga ega bo'lgan Markaziy Osiyo qarama-qarshilik maydoniga aylanishdan, shubhasiz, manfaatdor emas.

Shu bois, ko'p vektorli nafaqat davlat, balki mintaqaviy siyosatning ushbu nozik muvozanatini saqlab qolish uchun barcha sa'y-harakatlarimizni amalga oshirish umumiy manfaatlarga to'g'ri keladi. Bunday muntazam tadbirlar, "kuch markazlari" bilan uchrashuvlar, yuqori darajadagi muloqotlar mutlaqo tabiiy zarurat. Biz uchun doimo barcha tarafni Markaziy Osiyo mintaqasining sa'y-harakatlari, manfaatlari haqida xabardor qilish, tomonlarni tinchlikka chaqirish, umumiy pozitsiyamizni bildirish nihoyatda muhim, chunki jamoaviy ovoz kuchliroq yangraydi.

Agar Markaziy Osiyo davlatlarining har biri bir xil so'rovlar bilan alohida ikki tomonlama formatda uchrashuv o'tkazsa, jamoaviy tadbirdan ko'ra kamroq samaraga ega bo'lardi. Bizning bu boradagi intilishlarimizni YI qo'llab-quvvatlayapti. Jahondagi qarama-qarshiliklar sharoitida YI yangi bozorlar qidirmoqda. Bu bozor, shubhasiz, katta xomashyo resurslari, nodir metallarga boy, salohiyatli ishchi kuchiga ega Markaziy Osiyodir.

Shu ma'noda, iqtisodiy hamkorlikning ikkita asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatish o'rinli. Bular: energetika va qayta tiklanadigan energiya manbalari. Chunki Markaziy Osiyo shamol va quyosh energetikasini rivojlantirishga xizmat qiladigan keng maydonlar tufayli qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha katta imkoniyatga ega. Hududdagi muhim xomashyo, uning o'zlashtirilishi alohida qiziqish uyg'otmoqda. Nodir yer materiallariga kelganda, hozir YI mamlakatlari Xitoyga birmuncha qaram. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo bilan hamkorlik xom-ashyo yetkazib berishni diversifikatsiya qilishga yordam berishi mumkin. Shu jihatdan ham Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasidagi munosabatlarda yangi davr boshlanishiga umid qilinayapti.

"Buyuk davlatlar" o'rtasidagi raqobat kuchayib borayotgan, global ta'minot zanjirlari qayta tuzilayotgan va Yevropa Ittifoqi iqtisodiy barqarorlikni strategik maqsad qilib qo'rgan bir paytda Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston va YI o'rtasidagi muhim xomashyo bo'yicha sheriklik Yevroosiyoqadagi geosiyosiy

iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, YI ulkan global ekologik ofat — Orol dengizi inqirozini yengillashtirishda O'zbekiston va mintaqamizga xolis, beg'araz yordam ko'rsatayotgani e'tiborga molik. YI zarar ko'rgan hududlardagi yerni tiklash, cho'llanishga qarshi kurashish va iqlim o'zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatish bo'yicha qator loyihalarni birgalikda amalga oshirib kelmog'da. Samarqand xalqaro iqlim forumida mintaqaning "Yashil" taraqqiyot konsepsiyasi taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Bu Markaziy Osiyo davlatlarining iqlim o'zgarishi sohasida yagona mintaqaviy yondashuvini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Unda yetakchi xalqaro tashkilotlarning mintaqadagi ekologik muammolarni hal qilish borasidagi yondashuvlari taqdim etildi.

Suv resurslarini tejash sohasida Yevropa Ittifoqi katta tajribaga ega. Bu borada Yevropa Ittifoqi bilan irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilishdan tortib, muzliklarni birgalikda kuzatish va ilg'or suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishgacha bo'lgan yo'nalishlarda hamkorlik uchun katta imkoniyat mavjud.

Ustuvor yo'nalishlardan yana biri ekotizimlar va bioxilma-xillikni tiklashdir. Tanazzulga uchragan yerlar, jumladan, Orolbo'yi hududini ko'kalanzorlashtirish bo'yicha keng ko'lamli dastur — "Markaziy Osiyoning yashil belbog'i" loyihasini amalga oshirishda Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik qo'l keladi.

Umuman olganda, Samarqandda o'tgan tarixiy tadbirlar Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi jadal hamkorlikka yangi sur'at bag'ishlaydi. Mintaqamiz jahon siyosatining muhim geosiyosiy subyektlilik aylanayotgani tufayli Yevropa dunyoning bu qismida o'z ishtirokini kuchaytirishi kerak qabilidagi chaqiriqlar ko'hna qit'ada tobora baland

ko'hna qit'aning tajribasidan foydalanish, mintaqamizda tatbiq etish foydadan xoli emas. YI doirasidagi raqamli xizmatlar (DSA) va sun'iy intellekt to'g'risidagi qonunlarni (AI Act) katta muvaffaqiyat sifatida ta'kidlash mumkin. Chunki bular orqali Yevropa Ittifoqi onlayn xavfsizlik uchun zamonaviy huquqiy asos va sun'iy intellektni boshqarishning global standartlarini taqdim etdi.

YI mintaqamizga bu borada ko'mak beryapti. Olaylik, Markaziy Osiyoning raqamli transformatsiyasi uchun 55 million yevro ajratilgan. Moliyalashtirish telekommunikatsiya sohasidagi islohotlar, kibexavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga yo'naltiriladi. Sun'iy yo'ldosh aloqasi sohasida ham Yevropa xususiy sektori bilan hamkorlik davom etmoqda.

Suv resurslari va energiyani barqaror boshqarish uchun YI 200 million yevro sarmoya kiritdi. Muhim xomashyo sohasidagi hamkorlik uchun 16 million yevro, shuningdek,

“

**“BUYUK DAVLATLAR” O'RTASIDAGI
RAQOBAT KUCHAYIB BORAYOTGAN,
GLOBAL TA'MINOT ZANJIRLARI
QAYTA TUZILAYOTGAN VA YEYVROPA
ITTIFOQI IQTISODIY BARQARORLIKNI
STRATEGIK MAQSAD QILIB QO'YGAN
BIR PAYTDA MARKAZIY OSIYO, XUSUSAN,
O'ZBEKISTON VA YI O'RTASIDAGI MUHIM
XOM-ASHYO BO'YICHA SHERIKLIK
YEVROOSIYODAGI GEOSIYOSIY IQTISODIY
SIYOSATNING MUHIM TARKIBIY QISMIGA
AYLANMOQDA.**



yangramoqda. Qolaversa, 27 a'zoni o'zida birlashtirgan, 450 milliondan ziyod fuqaroga ega Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro siyosiy va iqtisodiy kuchlar bilan muloqotda teng huquqli sherik sifatida ishtirok etish O'zbekistonning diplomatik salohiyatini mustahkamlaydi. Shu sababli "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti xalqaro munosabatlar tizimida muhim voqea sifatida baholandi. U nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlaydi, balki mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va siyosiy hamkorlik uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

YI mintaqaga iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi xususiy investorlar hamda iqtisodiy rivojlanish va hududlarimiz o'rtasidagi transport aloqalarini yaxshilashga hissa qo'shadigan tashabbuslar orqali kirib kelmog'da. Chunki ochig'ini aytganda, shunchaki mahsulot ishlab chiqarishning o'zi yetarli emas, mahsulotni tashqi bozorlarga yetkazib berish muhim. Shu bois, o'zaro tovar ayirboshlashni rivojlantirish uchun hududlarimiz o'rtasida tovar ayirboshlash uzluksizligini ta'minlaydigan savdo yo'llari ochiq bo'lishi, faoliyat yuritishi va takomillashtirilishi juda muhim.

Bugun YI yuksak texnologiyalar, raqamlashtirish, sun'iy intellekt sohasida jadal rivojlangan davlatlar hamjamiyatidir. Bu borada

qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun 30 million yevro sarmoya kafolati ajratildi. 2021-2027-yillarda talabalarining harakatchanligi va akademik almashinuvini qo'llab-quvvatlash uchun 73 million yevro yo'naltirilmog'da.

E'tiborli tomoni, Markaziy Osiyo toza texnologiyalar uchun eng zarur xomashyo resurslariga, ulkan salohiyatga ega. Biroq Yevropa Ittifoqi faqat xom-ashyoni olib ketish emas, balki to'liq qiymat zanjiri yaratish, ya'ni qazib olishdan qayta ishlash va qayta tiklashgacha bo'lgan jarayonni shakllantirishni maqsad qilmoqda. Bu esa yangi ish o'rnlari ochish, yuqori ekologik va ijtimoiy standartni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, Yevropa bilan ko'p asrlik tarixiy aloqalarimiz bor. Buyuk ipak yo'li asrlar davomida Yevropani Markaziy Osiyo bilan bog'lagan. Nafaqat savdo, balki g'oya, madaniyat va innovatsiya almashinuvi ham bo'lgan. Endi ushbu boy merosga tayangan holda qadimiy an'analarni zamonaviy va uzoq muddatli hamkorlikka aylantirish davri keldi. Zero, bugungi beqaror dunyoda Yevropa har doimgidek ochiqlik va hamkorlik tarafdori bo'lib qolayapti.

Yevropa Ittifoqi uchun Markaziy Osiyo muhim hamkor. Shu o'rinda tarixga murojaat qilsak: oliy darajadagi "Markaziy Osiyo —



po'lat ittifoqi sifatida boshlangan holda hozir dunyodagi eng qudratli iqtisodiy va siyosiy bloklardan biriga aylanmoqda. Markaziy Osiyo ham kelajakda shunday kuchga aylanishi mumkin.

Ta'lim sohasida ham hamkorlik istiqbolli. Oxirgi 10 yilda "Erasmus+" dasturi doirasida 10 ming talaba va mutaxassis Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasidagi almashinuvda qatnashdi. Bugun O'zbekiston ta'lim va kadrlar almashinuvi sohasida Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlari bilan hamkorlik qilib kelmog'da. Hozir Toshkent shahrida Italiyaning Turin politexnika universiteti, Germaniyaning Gyteo instituti filiallari faoliyat yuritmoqda. Qolaversa, Prezidentimizning shu yil martda Fransiya tashrif doirasida O'zbekiston — Fransiya universitetini tashkil etish to'g'risida hukumatlaro bitim hamda fransuz tilini o'qitishni kengaytirish to'g'risida bayonnoma imzolangan edi. Shu bois, ta'lim, fan va yoshlar siyosatini rivojlantirishda ham sammit doirasida samarali platformalar yaratish ko'zda tutildi.

Misol uchun, "Erasmus+", "Horizon Europe" kabi dasturlarda O'zbekiston ishtirokini kengaytirish, ta'lim va kadrlar tayyorlash, akademik almashinuvlar, til o'rganish va innovatsion tadqiqotlar sohaslarida Yevropa Ittifoqi tajribasi shular jumlasidan. Prezidentimizning bu kabi dasturlarda O'zbekiston ishtirokini kengaytirish, ta'lim va kadrlar tayyorlash, akademik almashinuvlar, til o'rganish va innovatsion tadqiqotlar sohaslarida Yevropa Ittifoqi tajribasini o'rganishga qaratilgan navbatdagi tashabbuslari ma'rifati, innovatsion bilimga ega yoshlar safini kengaytirishga shubha yo'q.

Yangi O'zbekistonda Uyg'onish ma'rifati, mash'ali ko'tarilgan. Prezidentimizning Uchinchi Renessans poydevorini quryapmiz, degan so'zlari bugungi xorijiy davlatlar rahbarlari bilan muloqotlarda, yurtimizdagi yangilanishlar, o'zgarishlarda o'z nishonalarni ko'rsatmoqda. Renessans — uyg'onish ma'rifati, yangi taraqqiyotning umummilliy harakati. U millat tafakkuridagi tarqoqlikni bartaraf etib, xalqni hamjihat, kuchli iqtidor, qudratli to'liqling aylanitradi.

Qaysi davlat yuksak taraqqiyotga erishgan bo'lsa, bu faqat ta'limga e'tibor, ilm-fanni rivojlantirish tufayli sodir bo'lganiga tarixda misollar ko'p. Demokratik jamiyat asosi bo'lgan ta'lim islohotlar, taraqqiyotni targ'ib qiladi va innovatsiyalarga yo'l ochadi. Aksincha, ilmsizlik oqibatida yuzaga kelgan barcha munosabat nizoga aylanib, jamiyat taraqqiyotiga raxna soladi.

Xavfsizlik ham ustuvor masalalardan biri. Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo terrorizmga qarshi kurashda hamkorlikni chuqurlashtiradi, xavfsizlik bo'yicha maxsus muloqotni yo'lga qo'yadi. Hududiy xavfsizlikni ta'minlash Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun har doim ustuvor yo'nalish bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Yevropa Ittifoqi bilan tovar ayirboshlash hajmi "GSP+" tartibi tufayli barqaror o'sib bormoqda. 2024-yilda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi davlatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash qiymati 6,4 milliard dollarga yetib, 2023-yilga nisbatan 5,2 foiz ko'paygani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

2021-yildan O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo'yicha maxsus preferensiyalar tizimi (GSP+) kuchga kirishi savdo aylanmasining ijobiy dinamikasiga ko'maklashdi. Ushbu tizimning benefitsiar a'zosi sifatida O'zbekistonning matolar, kiyim-kechak va plastik mahsulotlar kabi qator muhim eksport tovarlariga tariflar bekor qilinishi eksportimizning o'sishi va mamlakatimizga qo'shimcha sarmoya jalb qilinishiga imkon beradi.

Barqaror taraqqiyot sohasida "GSP+" oldidagi majburiyat O'zbekistonning ishonchli va uzoqni ko'ra oladigan iqtisodiy sherik sifatidagi pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi. Imtiyozdan eng ko'p qo'llanayotgan mahsulotlar tarkibidan to'qimachilik, kiyim-kechak, plastik mahsulotlar, shuningdek, meva-sabzavot va yong'oq o'r'in olgan. Bu esa O'zbekiston eksporti tuzilmalari rang-barangligini ko'rsatadi. Ushbu imtiyoz tufayli savdo hajmi yildan yilga o'sib boryapti. Qo'shma loyihalarining amalga oshirilishi esa Yevroosiyo qit'asining industrial xaritasini tubdan o'zgartirib yuborishga imkon beradi. Chunki bunday hamkorlikdan har ikki tomon ham katta foyda ko'radi. Buning uchun imkoniyatlar yetarli.

Masalan, murakkab geosiyosiy vaziyat va global iqtisodiyotdagi salbiy jarayonlarga qaramay, Markaziy Osiyo mamlakatlari barqaror o'sish ko'rsatkichini namoyon etmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tahlilchilarining so'nggi o'rganishlariga ko'ra, mintaqadagi umumiy iqtisodiy o'sish joriy yilda 5,3-5,5 foizni tashkil qiladi. Yevropalik ekspertlar esa O'zbekistonda yillik o'rtacha 6,5 foizlik o'sishni prognoz qilmoqda. Ayni paytda mamlakatimiz o'z oldiga "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga asosan yalpi ichki mahsulot hajmi va aholining real daromadini ikki barobar oshirib, daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirishni rejalashtirgan. Jadal sanoatlashtirish siyosati, jumladan, qayta ishlash tarmoqlariga xorijiy sarmoya, xususan, YI davlatlari investitsiyalarini keng jalb etish ushbu maqsadga erishishning asosiy omili bo'ladi.

Shu ma'noda, barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida o'zaro bog'langan transport yo'laklarini shakllantirish ustuvor masala. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va Yevropaning transport-kommunikatsiyaviy bog'liqligini, eng avvalo, Transkaspий tranzit yo'lagini shakllantirish orqali rivojlantirish maqsadida mamlakatlarimizning sa'y-harakatini birlashtirish muhim. Bu yo'l mintaqaning qiyofasini o'zgartirish, Xitoydan tortib Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz, Turkiya va Yevropa kabi boshqa mintaqalar chegaralariga ulanish, tovar yetkazish imkonini beradi. Mazkur yo'lak Yevropaga ham, Markaziy Osiyoga ham barqarorlikni mustahkamlash, siyosiy va iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish uchun yechimdir.

Davlatimiz rahbari mazkur sammit oldidan "Euronews"ga bergan intervyusida alohida qayd etib o'tganidek, "Markaziy Osiyo global transport zanjirlarining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Biz Transkaspий va Transafg'on transport yo'laklarini faol rivojlantiryapmiz — bu mamlakatlarimizning jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu tarzda Markaziy Osiyo endi tarixning chetida emas, balki o'z strategik kun tartibini shakllantirayotgan, jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylanmoqda. Siyosiy iroda, yuqori darajadagi o'zaro ishonch va qo'shma iqtisodiy tashabbuslar mintaqada barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi".

Xullas, imzolangan kelishuvlar, YI ma'naftli loyihalar uchun ajratgan 12 milliard yevro mablag', ilgari surilgan taklif va tashabbuslar orqali tarixiy aloqalar qayta mustahkamladi. Prezidentimiz bu bilan dunyoning O'zbekiston va mintaqamizga ishonchini tikladi. Buni hech istisnosiz Shavkat Mirziyoyev fenomeni va yangi O'zbekistonga ishonchning amaliy ifodasi deyishimiz mumkin.

Yurtimizda o'tkazilayotgan har bir tadbir, har bir uchrashuv Prezidentimizning "biz ergashuvchi emas, ergashtiruvchi bo'lishimiz kerak", degan g'oyalarga mos kelishi bilan qalbimizda iftixor uyg'otadi. Samarqand deklaratsiyasi sammitning asosiy natijalaridan biri bo'ldi. Bu hujjat tomonlarning strategik sheriklik o'rnatishga bo'lgan umumiy intilishini aks ettirdi. Deklaratsiya nafaqat erishilgan kelishuvlarni mustahkamlaydi, balki mintaqalarimiz o'rtasidagi aloqalarni chuqurlashtirish uchun asos yaratadi.

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda turli mintaqalardagi transchegaraviy nizolarning ko'payishi, dunyo siyosatidagi beqarorlik, muvozanat buzilishi, rivojlangan davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar hamda zamon shiddat bilan o'zgarib borayotgani iqtisodiy beqarorlikni yuzaga keltirmoqda.

Prezidentimiz 18-aprel kuni dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy tebranishlarning soha va tarmoqlarga ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu masalaga alohida urg'u berib, O'zbekiston o'zi tanlagan taraqqiyot yo'lidan og'ishmay ketishi uchun ko'rilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Xususan, davlatimiz rahbari hozir dunyo avvalgidек emasligi o'zgaruvchan munosabatlari, turli tarif va cheklovlar boshqa davlatlarga ham zanjirli ta'sir ko'rsatib, jahon iqtisodiyotining sekinlashishi va xalqaro savdo kamayishiga olib kelayotganini ta'kidladi. Jumladan, eng katta xavf pandemiya davridagidek dunyo bo'ylab ta'minot va qiymat yaratish zanjirlarida uzilishlar paydo bo'lishida ekanini qayd etdi.

Yaqin o'tmishda, aniqrog'i, pandemiya davrida koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish uchun davlatlar chegarasini yopib, odamlar yashayotgan hududi, hatto uyidan chiqmaslikka majbur bo'lgandi. Bu esa dunyo miqyosida oziq-ovqat, moliyaviy taqchilikning kuchayishi, eksport va importning cheklanishiga, pirovardida dunyo iqtisodiyoti inqiroziga sabab bo'ldi.

Bu inqiroz pandemiya davri yakunlanishi bilan o'z nihoyasiga yetishini hamma bilardi va shunday ham bo'ldi. Ayrim o'rinalarda hali-hanuz bu davr asoratlari bilan kurashishga ko'g'ri kelyapti. Lekin bugunga kelib hamma sohada ancha tiklanish kuzatilgan.

Hozir dunyo iqtisodiyotidagi vaziyatni iqtisodchi ekspertlar o'sha davrdagiga o'xshat-yapti. Pandemiya davrida iqtisodiy inqirozning asosiy sababi va tez orada yakunlanishini prognoz qilish mumkin edi. Ammo bugungi inqiroz qachon nihoyasiga yetishi, ayni iqtisodiy beqarorlik iqtisodiy inqirozga aylanishi mumkinligi haqida mutaxassislar aniq fikr aytolmayapti.

Lekin iqtisodchilar fikricha, uch-to'rt kun ichida xalqaro moliya bozorlarida 10 trillion dollar yo'qotilgan, yuqori tariflar oqibatida xalqaro savdo qiymati 3,5 trillion dollarga qisqargani, bu yil dunyodagi inflatsiya darajasi 7,5-8 foiz ko'tarilishi prognoz qilinmoqda. Aslida, bugungi iqtisodiy beqarorlikning iqtisodiy inqiroz sifatida baholanishi bir necha kun yoki oydaqi voqealar tahlili tufayli yuzaga kelgan qarash emas.

Bunga yillar davomida dunyo savdo hajmi qisqarib borayotgani asos qilib ko'rsatilmoqda. Joriy yil aprelda AQSHning import tovarlar uchun yangi boj tariflarini belgilashi iqtisodiy turg'unlikni dunyo miqyosidagi kun mavzusiga aylantirdi.

Yangi tarifga ko'ra, AQSH import mahsulotlariga boj to'lovini 10 foiz oshirdi. Ushbu tarif 90 kundan so'ng amaliyotga tatbiq etilishi belgilangan. Yangi tariflar davlatning 57 ta savdo hamkori iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Ular orasida rivojlanayotgan 28 ta davlat iqtisodiyoti uchun xavf katta. Biroq bu davlatlar orasida O'zbekiston mavjud emas. Umuman olganda, mamlakatimiz AQSHga ko'p mahsulot eksport qilmaydi. Ammo bu yangi tariflar bizga mutlaqo ta'sir qilmaydi degani emas. Mazkur holat O'zbekiston iqtisodiyotiga bilvosita ta'sir etadi. Masalan, yaqin qo'shimiz Xitoy mahsulotlariga AQSH 125 foizlik boj

belgilamoqda. Bu esa katta iqtisodiyot va eksport salohiyatiga ega davlatning qo'shimcha bozorlarga kirib borishga intilishini kuchaytiradi. Nafaqat Xitoy, balki AQSHga salmoqli mahsulot

inqiroz O'zbekistonga qay darajada katta ta'sir o'tkazgan? O'sha davrda ham xuddi bugundek xavotir o'ta kuchli bo'lganmi?

O'zbekiston 2008-yilda dunyo bozorida

kutilmoqda. Bu o'sish sur'ati bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rindir.

Albatta, dunyo iqtisodiyotidagi muhit yomonlashayotganiga qaramay, O'zbekiston



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

eksport qiluvchi ko'pgina davlatlar qo'shimcha bozorlarga kirib borishga majbur bo'ldi.

Bu esa biz katta miqdordagi mahsulot eksport qiladigan davlatlarda raqobatni kuchaytiradi. O'zbekistonlik ishbilarmonlar eksport salohiyatini saqlab qolish va yanada ko'tarish uchun karrasiga sifati va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishi zarur.

Yaqinda BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) "2025 — savdo va rivojlanish prognozlar: Bosim ostida — noaniqlik global iqtisodiy taxminlarni qayta shakllantiradi" nomli hisobotini e'lon qildi. Unda shu yil dunyo iqtisodiyotida 2,3 foiz pasayish kuzatilishi taxmin qilinayotgani qayd etilgan. Shuningdek, bugungi iqtisodiy beqarorlik rivojlanayotgan davlatlarga katta iqtisodiy bosim yuklashi aytiladi. Iqtisodiy prognozlarining noaniqlik ko'rsatkichi indeksi bo'yicha 2025-yil boshida asrning eng yuqori darajasi kuzatilayotgani ma'lum qilingan. Savdo hajmining keyingi bir necha haftada tushish sur'ati 2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamda 2020-yildagi pandemiya davri keyin uchinchi cho'qqisiga yetgani ta'kidlangan.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: pandemiya davridagi iqtisodiy inqiroz mamlakatlarga bir xil zarar yetkazgan. Ammo undan avvalroq neft narxining keskin oshishi kabi qator sabablar bilan yuzaga kelgan 2008-yildagi iqtisodiy

bugundek o'rniaga ega emas edi. Eksport hamkorlari ham hozirgidek ko'p bo'lmagan. Qisqasi, eksportdagi salohiyati doimiy turg'unlik darajasini saqlab qolavergan. Sababi eksport salohiyatiga ega tadbirkorlar kam bo'lib, O'zbekiston mahsulotlarini import qiluvchi davlatlar ikki-uchta edi, xolos.

Bugun esa O'zbekiston qo'shni mamlakatlar, Fransiya, Xitoy singari rivojlangan, Turkiya, Pokiston, Hindistondek yuqori salohiyatli davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarga ega. Bugun tadbirkorlarimiz to'rt devor orasida o'zi bilan o'zi ovora emas, dunyoning yirik bozorlariga mahsulot va brendlari bilan kirib boryapti. Bu esa jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar bizga ham ta'sir o'tkazishi muqarrarligini bildiradi. Chunki davlatimiz rahbari qayd etganidek, O'zbekiston iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati ko'plab xalqaro tashkilotlar, davlatlar va tuzilmalar tomonidan e'tirof etilayotir. Xususan, Garvard universiteti tahliliga ko'ra, oxirgi besh yilda "iqtisodiy murakkablik indeksi"da O'zbekistonning o'rni 25 pog'ona yaxshilangan. Ya'ni 105-pog'onadan 80-o'ringa ko'tarilgan. 162 turdagi milliy mahsulotimiz "dunyo bozorida raqobat ustunligiga ega" deb baholangan. Shuningdek, Garvard ekspertlari fikricha, 2033-yilgacha O'zbekistonning o'rtaacha yillik o'sishi 5,6 foizni tashkil etishi

bu borada yangi marralarni zabt etayotgani va kelgusida bundan-da yuksak natijalarga erishishga ishonch bildirilayotgani davlatimizda oqilona siyosat yuritilayotgani, mamlakat to'g'ri iqtisodiy o'sish yo'lidan borayotganini ko'rsatadi. Ammo bu yutuqlardan xotirjamlikka berilmay, islohotlar o'tkazish, tashabbus va yangi loyihalarni hayotga tatbiq etishimiz zarur. Ayniqsa, mamlakatning import va eksport salohiyatini oshirish borasidagi hali qilinishi



boshlaganimga ikki yil bo'ldi, — deydi Eldor Rahmatov. — Birinchi yili bir oz xavotirda kichik hovuzga laqqa baliq chovoqlarini keltirib tashlagandim. Uni oziqlantirish va parvarishlash qoidalarini mukammal o'rganib chiqdim. Dastlabki yili tajriba oshirdim. O'tgan yili esa 24 tonna baliq yetishtirib sotdik. Ishlab topgan daromadimiz ham chakkli bo'lmadi. Jami 400 million so'mdan ortiq mablag' ishladik. Boshida bu ish ancha murakkab ekanini eshitib, niyatimdan qaytmogochi ham bo'ldim. Lekin maqsad sari dadil intilgan odam har bir to'siqni yengib o'tishi aniq ekan.

Mahallamizdagi hokim yordamchisi tavsiyasi asosida kredit olib, "Eldor-Dilnavoz" oilaviy korxonasiga asos soldik. Hovlimizdagi bo'sh turgan joyda hovuz qurdik, ikkita artezian qudug'i kovlab, suv chiqardik. Hozir ikkita ochiq hovuzimizga baliq tashlangan. Joriy yilda ellik tonnadan ziyod baliq sotishni mo'ljallab turibmiz. Buning uchun barcha imkoniyatimiz bor. Qishki mavsumda esa joriy daromadimiz hisobidan yana qo'shimcha issiqxonali baliqxonalarini ko'paytirishni maqsad qilganmiz.

Ayni paytda korxonasida to'rt kishining bandligini ta'minlagan tadbirkor kelgusi yilda yana yangi loyihani amalga oshirish ustida ishlamoqda. Bundan tashqari, shu yerning o'zida quyosh panellarini o'rnatib, ehtiyoji uchun elektr energiyasi ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Ehtiyojidan ortganini esa hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga sotib, qo'shimcha daromad topmoqda. Eng asosiy, shu paytga qadar suv chiqarish uchun ishlatiladigan nasos va yangi bunyod etilgan muzlatkichi omborxona uchun ko'p elektr energiyasi sarflanib, korxona byudjeti sezilarli zarar ko'rayotgandi. Endi bu mablag' ham korxona foydasiga qoladigan bo'ldi.

— Ancha vaqtin xoriyda behuda o'tdi, — deydi Eldor. — Aslida, shundoqqina

hovlimizning o'zida shunchalik imkoniyat bor, sarson bo'lib yurishning keragi yo'q ekan. Ishonasizmi, xoriyda bir yil ishlab topganimni bu yerda bir oyda topyapman. Bugun tadbirkorlik yo'nalishida faoliyat yuritish uchun katta yo'l ochilgan, bundan faqat unumli foydalanish kerak, xolos.

Baliqchilikni yo'lga qo'yganimda, eng avvalo, sotishni o'ylagandim. O'rganib olinsa, bu oson ekan. Hozir baliqlar yetilgach, xaridorning o'zi kelib, tarozida o'lchab, shu yerning o'zida pulini sanab berib ketadi. Hovlidan chiqmay turib mehnatning samarasini ko'rish quvonarli. Oila bag'rda farovon yashashga nima yetsin! Oldimdan oqayotgan suvning qadriga endi yetdim.

Yigitning sa'y-harakati bugun mahalla aholisi uchun namuna bo'layotgani rost. Xayrli tashabbusning qulochi keng bo'ladi deganlaridek, aynan Eldor yashayotgan ko'chada baliqchilikni ommalashtirish harakati boshlangan. Uning yordami va maslahati asosida hozir ishsiz ikki oila boshlig'i imtiyozli kredit olib, shu yo'nalishda ishini boshlab yuborgan. Mahalla faollarining ta'kidlashicha, hududda baliq ko'paytirish uchun qor suv mavjud. Qishloqda bu yo'nalishga qiziquvchilar ortayotgani bois, kelgusida aholiga beriladigan imtiyozli kredit miqdori oshiriladi.

Yil yakuniga qadar bir milliard so'm daromad topishni rejalashtirayotgan Eldor Rahmatov buning evaziga qo'shimcha parrandachilik xo'jaligini tashkil etib, yangi ish o'rnlari ochmoqchi. Qolaversa, mahalladagi shu sohaga qiziquvchi yoshlarga kasb sirlarini o'rgatib, har birining o'zini o'zi band qilishiga yordam berishni maqsad qilgan.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Kambag'allikdan farovonlik sari

OLDINGDAN OQQAN SUVNING QADRI

Uni vaqtida ilg'ash ham katta mahorat

"Hunarli kishi xor bo'lmas" deb bejiz aytilmagan. Qo'lidan ustachilik kelgani bois, Eldorning doim oshig'i olchi. Shu ishining ortidan yaxshigina daromad topadi. Keyingi paytda zamonaviy eshik-romlar o'rnatishga qiziquvchilar ko'paygani ustaning ishini yanada avjlantirdi. Qo'li qo'lga tegmaydi. Tunov kuni bir oylik daromadini hisoblab chiqqandi, o'n million so'mdan oshdi. Agar shu zayil harakat qilsa, bir yilga qolmay yangi mashina olishi tayin. Bundan tashqari, uy-joyini ta'mirlab olsa ham bo'ladi.

Qator rejalar tuzib qo'ygan usta odatdagi kunlarning xoridga ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib o'tirarkan, boshidagi ayrim korxonalarda ish borligi haqida eshitib qoldi. Uni qiziqtirgani taklif etilayotgan joyning maoshi ancha yuqori edi. Tez e'lon ostidagi raqamga qo'ng'iroq qilib, bal'mumot olishga intildi. Go'shakning narivog'idan javob bergan kishi unga aynan Eldor kabi ustalar kerakligini, qo'lida hunari bor yigitlar yaxshi pul ishlab olishini aytdi. Shundan so'ng qahramonimiz safar taraddudiga tushdi.

Bir olam orzular og'ushida yo'lga chiqqan Eldor xoriyga borgach, ikki oydan ortiq vaqt bekor yurdi. Hujjatlarini rasmiylashtirish oson kechmadi. Ishga joylashib, maosh oladigan

bo'lgach, ko'ngli xotirjam tortdi. Lekin olayotgan oyligi shuncha yo'l bosib kelganiga arzimadi. Qaytib ketay desa, kelish oson bo'lgani yo'q. Qolaversa, eshitgan tanish-bilishlar oldida ham uyatli bo'lishi tayin. Chidashdan o'zga chorasi yo'q edi. Uch yil vaqtini o'tkazgan yigitning topganida baraka bo'lmadi. O'turgani oilasidagilarning kuni o'tishiga yarab turdi, xolos. Oxiri barchasiga qo'l siltab, qishlog'iga qaytdi.

Xoriyga ketishidan avval kredit olib, biror yumush bilan shug'ullanish istagida bankka murojaat qilganida tayinli javob ololmagandi. Oradan shuncha vaqt o'tib, ko'p narsa o'zgarib ketibdi. Hokim yordamchisining o'zi uyiga

kelib, uning ish boshlashiga yordamlashmoqchi ekanini aytganida unchalik ishonqiramad. Qarasa, bunday imkoniyati boshqalar uchun ham qo'llanaydi. Shunda u anchadan beri orzu qilgani — oilaviy korxona ochish harakatiga tushdi. O'zi yashab turgan Qamashi tumanidagi Qoratapa mahallasida tadbirkorlikka qo'l urdi.

Avval qo'shni tumanda shu sohada faoliyat yuritayotgan tanishining rejalarini o'rganib chiqdi. Uning maslahati bilan intensiv usulda baliq ko'paytirish uchun kerakli joy hozirlashga kirishdi. 3,5 sotix yerga issiqxona shaklida baliqxona qurib, ishga kirishdi.

— Baliqchilik bilan shug'ullana

AKBOROT TEKNOLOGIYALARI QO‘L YETMAS SOHA EMAS

Zamonaviy dunyoda aqliy mehnat ham boylik manbayi ekanini tushunishimiz kerak



Dadaxon MUHAMMADIYEV, jurnalist

Ko‘pchiligimiz AT (axborot texnologiyalari) deganda, bizga begona, uzoqdagi qo‘l yetmas sohani tushunamiz. Ammo yon-atrofimiz, qilayotgan ishlarimiz, kundalik turmushimiz shu soha bilan chambarchas bog‘lanib ketganini e‘tibordan chetda qoldiramiz. Bu sohani xalqimiz orasida targ‘ib qilish, ma‘no-mazmunini tushuntirish ishlari bir oz oqsayotgandek, nazarimizda.

To‘g‘ri, bu borada bajarilayotgan amaliy ishlar e‘tirof etishga arziydi. Raqamli texnologiyalar vazirligi tashkil etilishi, har bir hududda faoliyat yuritayotgan IT parklar, bepul yoki arzon kurslar faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, grantlar va stipendiyalar ajratilayotgani, mutaxassislar bilan tinimsiz uchrashuvlar o‘tkazilishi sohadagi ishlarining qanchalik ko‘lamdor ekanini ko‘rsatadi.

Gap AT targ‘iboti haqida ekan, bu boradagi sa‘y-harakatlarimizning ko‘rinishi haqida gapirib o‘tish joiz. Ushbu soha nima ekan va imkoniyatlari haqidagi umumiy mazmundagi tushuntirish ishlari muntazam olib boriladi. Uning masofaviy ish, yuqori daromad manbai va erkin ish vaqtiga moslashgani haqidagi targ‘ibotlarga ham ko‘p guvoh bo‘lamiz. Sohada muvaffaqiyat qozongan insonlarning bugungi faoliyati haqidagi misollar ko‘rgan ko‘zni quvnatadi. Ammo ana shu ko‘zni quvnatadigan joyida yana bir nozik jihat ham borki, bu aynan shu soha va unga qiziqqan inson o‘rtasida chegaraning hosil bo‘lishidir. Chekka hududlardagi hamma odam ham AT haqida chuqur tushunchaga ega emasligini to‘g‘ri qabul qilish kerak. Shuning uchun ushbu sohaning afzalliklarini targ‘ib qilish, kompyuter yoki telefon orqali yaxshigina daromad topish

“O‘zimcha o‘ylayman: ATni oddiy targ‘ib etish uchun nimalar qilish kerak? Balki biz uni noto‘g‘ri targ‘ib qilayotgandirmiz? Sohani faqat ko‘p pul topish yo‘li deb emas, hayot tarzimizning bir qismi sifatida tushuntirishimiz kerakdir? AT dasturlashgina emas, turli kasblar yig‘indisi ekanini, qolaversa, bugun barcha sohada u borligini ko‘rsatishimiz darkordir?”

imkoniyatlarini tushuntirish, qishloqda yashab ham AT orqali pul topish mumkinligini misollar bilan ko‘rsatib berish kerak.

Ikki yilcha avval shu mavzuda dasturchi do‘stim bilan suhbatlashib qolgandik. O‘shanda u qiziq gaplarni aytgandi:

— Bizning aksariyat odamlar ongida boy bo‘lish uchun, albatta, qora terga botib ishlash kerak, degan tushuncha bor. Ya‘ni bozorda savdo qilishning, biznes yoki ishlab chiqarish qilishning kerak, degan fikr. Lekin jismoniy mehnat boylik emas, tirikchilik yo‘li, xolos.

Qarasam, gapida jon borday. Fikriga qo‘shilib-qo‘shilmay turganimni, ammo qiziqayotganini ko‘rib davom etdi:

— Bu eskicha qarash, lekin haligacha juda keng tarqalgan. Odamlar boy bo‘lish uchun jismoniy mehnat qilish shart deb o‘ylaydi. Chunki ilgari faqat shu yo‘l bor edi. Bugun dunyo o‘zgardi — aqliy mehnat, texnologiyalar asosiy boylik manbai bo‘ldi. Mana qara, biznes ochish yoki bozorda savdo qilish uchun katta pul va tavakkalchilik kerak. Hammadayam shunaqa imkoniyat bor deb o‘ylaysanmi? Ko‘p, biznes yo savdo boshlading ham deylik. Ammo bir kunda 24 soatdan ko‘p ishlamaymisan. Vaqtning, kuching cheklangan. Dastur yozsang-chi? Bir marta yozsang, ming martalab ishlayveradi. Yoki videokurs tayyorlaysan — yillar davomida

sotilaveradi. Veb-sayt yaratish yoki dizayn qilish ham shunday: bir marta ishlab chiqib, doimiy daromadni yo‘lga qo‘ysa bo‘ladi.

Uning gaplaridan amin bo‘ldimki, aslida, odamlar ATga qarshi yoki begona emas, ularning aksariyati sohani yaxshi tushunmaydi, xolos. Masala axborot texnologiyalari haqida emas, biz uni qanday targ‘ib qilayotganimizda. Demak, bu yerda ayb shunday qarashdagi odamlarda ham emas, balki uni targ‘ib qilayotganlarda, aniqrog‘i, yetarlicha targ‘ib qilolmayotganlarda.

So‘ng undan ATni o‘rganishni qayerdan va nimadan boshlash kerakligi haqida so‘rayman. Javobi esa avvalgi gaplaridan ham qiziq:

— Odamlar ATni faqat dasturlash deb o‘ylaydi, lekin o‘zlari allaqachon undan foydalanib kelayotganini xayoliga ham keltirmaydi. Oddiy misol: telefonida Google qidiruv tizimidan ma‘lumot izlayotgan odam raqamli dunyoda ishlashni o‘rganib bo‘lgan kishidir. U ma‘lumot qidirishni o‘rganmayapti, undan keyingi bosqichlarda harakat qilaypti.

Tik-Tok, Telegram yoki Instagram ijtimoiy tarmog‘iga video joylayapsan, deylik — SMM ustasining ishi ana shunday boshlanadi. Keyinchalik o‘z ustida ishlab, takomillashib boraveradi. Ko‘p yoshlar telefonda rasimga yozuv qo‘shish, videoning rangi yo shaklini

o‘zgartirishni biladi. Dizaynerlikning boshlanishi aynan shu.

Hozir ko‘pchilikning YouTube ijtimoiy tarmog‘ida sahifasi bor. Garchi obunachilari va tomoshabinlari sanoqli bo‘lsa-da, video qirqish, ovozni montaj qilishni biladi. Videomontajchilik, hatto videomuharrirlik ham mana shu ishlardan boshlanadi. O‘quv kursiga borsangiz, dastlabki vaqtlarda sizga shu va shunga o‘xshash ko‘nikmalar o‘rgatiladi.

Telegram ijtimoiy tarmog‘ida shaxsiy sahifasi borlar haqida ham shu gap: bu aynan internet marketing sohasidagi ko‘nikmaning shakllanib bo‘lganini bildiradi. Unda kontent menejeri bo‘lish imkonli bor! Faqat uning ustida ishlash, bir oz takomillashtirish kerak, xolos.

Biz nimalamidir onlayn xarid qilayotganimizda elektron tijoratning qanday ishlashini tushunib bo‘lgan bo‘lamiz. Demak, o‘zimiz ham bu ishni qila olamiz.

Biror-bir hunar, masalan, tikuvchilik yoki payvandlashni yaxshilab o‘rganish uchun o‘rtacha 6 oy vaqt ketadi, deylik. Agar odam har kuni 2 soatini ATni o‘rganishga sarflasa, 6 oyda internet orqali pul ishlay boshlashi mumkin, — degan edi suhbatdoshim.

Keyin bu gaplarning isbotini ko‘p ko‘rdim. Kasb yuzasidan turli mutaxassislar bilan gaplashishga, intervyular olishga to‘g‘ri keladi. AT sohasi mutaxassislari bilan gaplashish rostdan ham qiziq. O‘zining ishini puxta biladi, boshqalar bilan ishi yo‘q. Ko‘pi alohida bir dunyoda yashaydigandek tuyuladi menga.

Kuzatishlarimdan xulosa qilganimniki, ko‘pchilik dasturlash, SMM yoki ATning boshqa yo‘nalishlari uchun, albatta, oliy ma‘lumot kerak deb o‘ylaydi. Biroq grafik dizayn, veb-dizayn, testing, dasturlash, SMM kabi sohalar doim ham oliy ma‘lumot talab qilmasligini xayoliga keltirmaydi. Yoki axborot texnologiyalari bilan shug‘ullanish uchun, albatta, ingliz tilidan xabardor bo‘lish kerak deydi. Biroq grafik dizayn, mobil ilova ishlab chiqish, veb-dizayn kabi yo‘nalishlar chet tilini ko‘p ham talab qilmasligini bilmaydi. Yoki bu sohalarini o‘rganish uchun, albatta, viloyat va shahar markazlariga qatnash, doimiy pul to‘lash yoki bir necha yillab vaqt ajratish kerak deb hisoblaydi. Biroq ijtimoiy tarmoqlar va saytlarda pul talab qilinmaydigan resurslar borligidan bexabar.

Bu kabi jihatlar rostdan ham ko‘p. Aksariyat

odamlar ATni faqatgina dasturlash, turli murakkab algoritmlar, raqamlar, juda kam odam tushunadigan formulalar yig‘indisi deb o‘ylaydi.

Holbuki, AT faqat kodlash yoki kodlar yig‘indisi emas. Dizayn, marketing, videomontaj, testing kabi tushunchalar mazkur sohaning asosini tashkil qiladi. AT bilan shug‘ullanadigan odam matematika va ingliz tilini yaxshi bilish kerak, degan qarash ham bor. Aslida, AT bilan shug‘ullanishni boshlash uchun oddiy tushunchalardan xabardorlik va bir oz hayotiy tajriba yetarli. Dasturchi bo‘lish uchun bir nechta fanni qayta o‘qish, 10 yillab vaqt ketkazish kerak deb xayol qilamiz. Bu ishni yoshlikda o‘rganish kerak, endi kech bo‘ldi, tinchgina qora mehnat qilib yurganim yaxshi deyidiganlar ham topiladi. Ammo yon-atrofimizda 40-50 yoshda ATni o‘rganganlar, uzoq‘i 2-3 yilda yaxshi mutaxassis bo‘lib shakllanganlar ham bor. Eng asosiysi, biz xato qilib qo‘yishdan qo‘rqamiz. Ammo istalgan sohani olib ko‘ring, o‘rganishni boshlaganda hamma ham xato qiladi va bu tabiiy hol.

O‘zimcha o‘ylayman: ATni oddiy targ‘ib etish uchun nimalar qilish kerak? Balki biz uni noto‘g‘ri targ‘ib qilayotgandirmiz? Sohani faqat ko‘p pul topish yo‘li deb emas, hayot tarzimizning bir qismi sifatida tushuntirishimiz kerakdir? AT dasturlashgina emas, turli kasblar yig‘indisi ekanini, qolaversa, bugun barcha sohada u borligini ko‘rsatishimiz darkordir? Bu savollarning amaliy javobi taxminan quyidagicha bo‘ladi.

Avvalo, AT kelajak kasbi ekanini tushuntirish lozim. Kambag‘allikdan chiqib ketishning eng yaxshi yo‘llaridan biri AT ekanini oddiy va soddada usulda targ‘ib qilish talab etiladi.

Qishloqda yashab turib, u orqali boy bo‘lganlar, yaxshi yashayotganlar haqida maqolalar, intervyular, jonli ocherklar tayyorlash mumkin. Odamlarning xayolida “Shu odam uddalabdimi, men ham qila olaman!” degan tushunchani paydo qilishimiz kerak. Yoki ATni o‘rganib, bozorda ishlashdan voz kechganlar, savdo-sotiqni to‘xtatganlar bilan gaplashish, suhbatlar uyushtirish ham samara beradi.

Yoshlar o‘ziga o‘xshaganlardan andoza oladi. Shuning uchun real hayotdagi muvaffaqiyatli misollarni keltirish muhim. AT orqali kambag‘allikdan chiqib ketgan insonlarning tarixi boshqalar uchun ham zarur. Soha mutaxassislari qancha daromad topishi mumkinligini tushuntirish hammani qiziqtiradi.

AT biz qila olmaydigan yumush emas, balki ayni vaqtda qilayotgan ishimiz ekanini tushuntira

olsak, maqsadimizga birmuncha erishgan bo‘lamiz. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, biz AT haqidagi boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarga allaqachon egamiz. Qo‘limizdagi telefonda ko‘p funksiyalarni bajara olamiz: saytlarga kiramiz, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizga turli media mahsulotlarni joylay olamiz va hokazo. Lekin ularning o‘zi ham AT ekanini, aynan uning bir qismiligni bilmaymiz yoki bilishni ko‘p ham istamaymiz.

Yaqinda ish bilan bankka bordim. Navbatimni kutib o‘tiribman. Yonimdagi yoshgina yigit noutbugini ochib, nimalardir qilib o‘tiribdi. Navbat kutayotganlar, o‘sha yigitdan boshqa barcha telefon tikilgan o‘tiribmiz.

— Dasturchimisiz? — so‘rayman undan.

— Yo‘q, “aytishnik”man, — deb beparvo javob berdi u.

— Ie? Bu nima degani?

— Dasturchi emasman. Lekin shu sohada ishlayman.

— “Aytishnik” bo‘lsangiz, davlat xizmatlari, bank ishlarining hammasini internet orqali qila olasiz. Nega bu yerda navbat kutib o‘tiribsiz?

— Valyuta sotib olgani keldim. Buning uchun bankka kelish shart. Lekin siz, qo‘lingizdagi qog‘ozga qaraganda, kredit to‘lagani kelgansiz. Siz kelishingiz shart emas edi. Uyda yoki ishxonada o‘tirib, telefon orqali to‘lay olardingiz.

— Kredit emas, bo‘lib to‘lash.

— Uniyam telefon orqali to‘lasa bo‘ladi.

Hisob raqami bormi, bo‘ldi-da.

O‘zini Sardor deb tanishtirgan yigit menga davlat xizmatlaridan elektron foydalanish bilan qancha vaqt va pulni tejash mumkinligini oddiygina qilib tushuntirib berdi:

— my.gov.uz platformasi orqali juda ko‘p davlat xizmatlaridan foydalansa bo‘ladi. Lekin ko‘pchiligimiz hali ham bu platformadan foydalanishni bilmaymiz. Odamlar qanchadir pulini va yarim kun-bir kunlab vaqtini sarflab, davlat xizmatlari markazi yoki tashkilotlar eshigida navbatda turadi.

— Odamlar ATdan emas, notanish narsadan hayiqmasmikan? Ya‘ni “men noto‘g‘ri bajaraman”, “xato qilib qo‘yishim mumkin”, “men buni tushunmayman” degan fikrlar tufayli undan foydalanmas, balki?

Yigit norazmi qiyofada bir qarab qo‘yib, gapida davom etadi:

— Buniyam yo‘g‘ri. Odamlarga ma‘lumotni noto‘g‘ri kiritib to‘sa, muammo paydo bo‘ladigan yo jarima qo‘llanadigan yoki qog‘oz shaklidagi hujjatni qo‘lga olmasa, u haqiqiy emasdek tuyuladi. Atrofdagilari foydalanmasa, u ham tinchgina foydalanmay qo‘ya qoladi. Eng osani borib yordam so‘rash yoki kimdir shu ishingizni qilib berishi bo‘ladi. Qarang, my.gov.uzdan foydalanish Telegram yoki Facebook islatishdan ko‘ra murakkab emas. Qo‘lingizda smartfon va internet bo‘lsa, davlat idorasiga boraverishingiz shart emas. Buni bir marta o‘rganangiz, keyin 10-marta vaqtningiz tejalandi.

Balki my.gov.uzni ham Telegram yoki Facebook kabilarga o‘xshatib soddalashtirish kerakdir? Platformaning ko‘rinishi murakkabdir, yo‘xatdan o‘tish, funksiyalarni tushunish borasida qiyinchiliklar bordir?

— Men aynan bu yo‘nalishda ishlamaymiz.

Lekin siz aytgan ishlarni ham qila bo‘ladi. Odamlar my.gov.uzga kirib, qidirib o‘tirmay, Telegram yoki shunga o‘xshash qulay mobil ilovada ishini tez bajara olsa, ko‘p ma‘lumot talab qilmaydigan avtomatlashtirilgan tizim yaratilsa, bu juda yaxshi bo‘ladi. Dasturchilar bu jihatini ham o‘ylayotgani aniq.

Shu bilan suhbatimiz tugadi. Sardorning aytganlari ko‘pimiz biladigan, ammo e‘tibor bermaydigan gaplar.

Endi esa mavzuning ko‘lami kengaya boshlaydi.

Professional AT mutaxassislari yaxshi daromad topishi ma‘lum. Lekin boshlang‘ich mutaxassislar, sohani yangi o‘rganayotganlar qachon daromadga chiqa boshlaydi?

Qaysi yo‘nalishda qancha vaqtda pul ishlay boshlash mumkin?

Yaponiya qanday qilib ulkan texnologik davlatga aylandi?

Hindiston qancha vaqtda AT konveyeri bo‘la oldi?

Bu tajribalar biz uchun juda muhim va dolzarb. Biroq bular alohida to‘xtalish, alohida tahlil qilinishi zarur bo‘lgan mavzular.



Ta’lim

PROFESSOR MAKTABDA DARS O‘TMOQDA

Surxondaryo viloyatida maktabgacha, maktab va oliy ta’lim muassasalari hamkorligini rivojlantirish, ular o‘rtasidagi integratsiyani yanada mustahkamlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, Oltinsoy tumanidagi ta’lim sifati nisbatan past maktablarga viloyatdagi oliy ta’lim muassasalari biriktirilib, ularda o‘qituvchilarning sifat tarkibini yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tajriba ishlari boshlangan.

— Oltinsoy tumanidagi 54-umumta’lim maktabida hozir 80 dan ortiq pedagog faoliyat yuritadi. Keyingi vaqtlarda oliyoghlarning maktablarga biriktirilishi tajribasi o‘z natijasini ko‘rsatib, maktab jamoasi va o‘quvchilar faoliyatida yutuqlar ko‘zga tashlanmoqda, — deydi maktab direktori Rashid Xoliqulov. — Oliyogh professor-o‘qituvchilari muntazam ravishda maktablarga kelib, ta’limdagi o‘zgarish va yangiliklar, xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy uslublari haqida ma‘lumotlar beradi, so‘ngra fikr-mulohazalarni tinglaydi. O‘quvchilar bilan ham individual ishlanaadi.

Professor-o‘qituvchilar hududdagi 6 ta maktabda bo‘lib, maktab jamoasi bilan seminarlar tashkil etmoqda. Ularda, avvalo, ta’lim sifati oshirish, xususan, chet tillarni

o‘qitish bo‘yicha ilg‘or tajribalar haqida so‘z yuritilmoqda.

— Hamkorlikdan ko‘zlangan maqsad ham umumta’lim maktablari faoliyatini takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy va pedagogik mahoratini, o‘quvchilarning ilm-fan va kasb-hunarga qiziqishini oshirish, oliy ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, maktablarga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Avvaliga tajriba sifatida boshlangan ish bugun samarasini beraypti, — deydi TerDU o‘qituvchisi Otabek Rashidov.

Mamlakatimizda ta’lim sifati oshirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinayotgani kelgusida mevasini bermasdan qolmaydi. Maktablarga, shuningdek, taniqli olimlar, tadqiqotchilar ham



borib, ilmiy faoliyati bilan o‘rtiqloshmoqda. Yoshlarni ta’limga, ilimga qiziqtirmoqda.

Oltinsoylik Abdumalik O‘roзов maktabni bitirish arafasida ikkilanib turganda, oliyogh o‘qituvchilari saboqlari ortidan Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universitetida tahsil olishni tanladi. Viloyatda ikkinchi universitet sifatida ish boshlagan bu oliy ta’lim dargohi bugungi kunda chin ma‘noda nufuzli ilm maskanlaridan biriga aylanib boryapti.

— Bugun hech bir soha rivojini ilm-fan yutuqlariz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois, mamlakatimizda turli sohalarida ilmiy izlanishlar qilayotgan tadqiqotchilar, olimlar qo‘llab-quvvatlanib, ilmiy faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratib berilyapti, — deydi universitet o‘qituvchisi Mustafoqul O‘roзов.

— Olimlar berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha qator tadqiqotlarini amaliyotga joriy etmoqda.



Professor-o‘qituvchilarning, mustaqil tadqiqotchilar va talabalar bilan birgalikda meva-sabzavotchilik yo‘nalishida o‘ziga xos yangiliklarga qo‘l urgan.

Hozirgi kunda Surxondaryoda bodomni mahalliyilashirish bo‘yicha olimlar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Asosan, mahalliy iqlim va hududiy sharoitlarga mos keladigan bodom turlarini tanlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Ayni paytda mavjud

tajriba uchastkasida bodomning 4 turi mahalliyilashirilmoqda.

Surxondaryoda anor turlarini ham ko‘paytirish va mahalliy hududlarga moslashgan navlarni yaratish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

Izlanishlar davomida anor turlarini ko‘paytirish usullari, shu jumladan, vegetativ ko‘paytirish va bir qator agrotekhnik tadbirlar orqali ularning rivojlanishini yaxshilashga e‘tibor qaratilyapti. Barcha ko‘nikmalar tajriba dalalarida amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Vohada o‘zlashtirilgan qumli yerlarda dehqonchilik qilish uchun ham tajribalar o‘tkazilmoqda. Qum barxanlari sug‘oriladigan yerlar toifasiga kirmaydi. Olimlar bunday yerlarda qanday dehqonchilik qilish mumkinligini o‘rganyapti. Tajribalar natijasida qum barxanlarida yetishtiriladigan o‘simliklar va ularning rivojlanishi haqida qimmatli ma‘lumotlar olish maqsad qilingan.

Maktab va oliy ta’lim o‘rtasidagi uzviylik ortidan o‘quvchilikdan talabalikka, talabalikdan ilmiy faoliyatga yonib kirayotganlar safi ortib boryapti. Umr yo‘lini ilm yo‘li bilan chog‘ishtirgan holda iqtidorlar soni ko‘payib borayotgani ham bor gap. Bunga sabab yoshlar siyosatiga davlat darajasida eng ustuvor masala sifatida qaralayotganidir.

Kelajakni yoshlar belgilaydi. Keyingi yillarda ta’limga alohida e‘tiborning negizida bugungi tahlikali va shiddatli zamonada vatanparvar, bilimli, keng dunyoqarashli avlodni shakllantirishdek maqsad mujassam. Muhimi ham shu, aslida.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Xalqimizda “Qo’shnidan yolchigan” degan purma’no ibora bor. Buni “Hovli olma, qo’shni ol”, “Yon qo’shni — jon qo’shni”, “Qo’shning tinch — sen tinch” kabi maqollarning lo’nda ifodasi deyish mumkin. Azaldan yurtimizda yaxshi qo’shnichilik an’analari rivojlangan. Uning eng oliy namunasi insonning o’ziga ravo ko’rgan biror yaxshi narsa (quvonch, tansiq taom, daraxtning nishona hosili, ro’zg’or va turmushdagi birorta ortiqcha buyum)ni qo’shniga ilinishdir. Hatto og’ir, sinovli kunlarda ham qo’shnilar bir-biriga suyanadi, o’z holiga tashlab qo’ymaydi.

Shu ma’noda, Prezidentimizning yaxshi qo’shnichilik siyosatini xalqona udum va an’analarga sodiqlik namunasi deyishga yetarli asosimiz bor. Teng huquqli va do’stona munosabatga asoslangan bunday siyosat xalqlarimiz manfaatiga xizmat qilmoqda.

2016-yildan beri Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O’zbekiston va Qirg’iziston o’zaro hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga katta e’tibor qaratmoqda. Ushbu yaqin hamkorlik tarixiy ildizlar, umumiy an’ana, din, til va madaniyatga asoslanadi, albatta. Davlatlarimiz o’rtasida hamkorlikning yangi davri boshlangani bugun har qadamda ko’zga tashlanib, xalqlarimiz turmushida aks etyapti. Yillab bir-birini ko’rishga mushuqto bo’lgan qonqarindoshlar endi bir-birining uyiga e-min-erkin borib kelyapti.

Shu vaqtgacha, ochig’i, bunday imkoniyat yo’q edi. Chegaralarimiz yopilgan, qondosh, bir mintaqa xalqlari vizasiz chegaradan nariga yoki beriga o’ta olmasdi. Bunday yot qarash, begona ko’rish, avvalo, oddiy odamlar hayoti

deklaratsiyasi kiradi. Ushbu kelishuvlar ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun zarur barcha sharoitlarni yaratadi.

— O’zbekiston va Qirg’iziston madaniy-gumanitar sohadaqi hamkorlikni ham rivojlantirib bormoqda, — deydi Chingiz Aytmatov nomidagi xalqaro Issiqko’l forumi vitse-prezidenti Dinarar Jumaboyeva. — O’zbekistonda 6 ta Qirg’iz madaniy markazi va qirg’iz tilida ta’lim beriladigan 50 dan ortiq maktab faoliyat yuritmoqda. Andijon davlat pedagogika institutida qirg’iz filologiyasi fakulteti mavjud. Ikki davlat hukumatlari madaniyat va turizmi rivojlantirish maqsadida turli tadbirlar o’tkazish va qo’shma delegatsiyalar ishtirokini ta’minlashga katta e’tibor qaratmoqda.

Umuman olganda, davlatlarimiz o’rtasidagi hamkorlik do’stlik va yaxshi qo’shnichilik tamoyillariga asoslanib, har tomonlama mustahkamlanmoqda. Davlatlar nafaqat hozirgi darajadagi do’stona va strategik hamkorlikni saqlab qolishi, balki uni yanada rivojlantirishi davr talabidir.



Dastlab mehmonlar Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universitetidagi “Chingiz Aytmatov va O’zbekiston” doimiy ekspozitsiyasi bilan tanishtirildi. So’ng “Chingiz Aytmatov — turkiy olamning umumiy iftixori” xalqaro anjumanini boshladi.

Xalqimiz buyuk adib Chingiz Aytmatovning O’zbekiston bilan Qirg’iziston o’rtasidagi qardoshlik rishtalarini rivojlantirish va mustahkamlashga qo’shgan hissasini doim

Imonaliyevning “Qirg’iznoma” kitoblarning o’zbekcha nashri taqdimoti ham bo’lib o’tdi. Chingiz og’aning inglisi Roza Aytmatova “Xat keldi” kitobida Aytmatovlar oilasining yana bir vakili — adibning ukasi Ilgiz Aytmatovning o’smirlik yillari haqida hikoya qiladi. Unda atog’li yozuvchining yoshlik yillari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Qanibek Imonaliyevning kitobi qirg’iz

— Mamlakatimizda “Adabiy do’stlik — abadiy do’stlik” degan g’oya yuksak maqomga ko’tarildi, — deydi O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyid. — O’tgan qisqa muddatda turkiy davlatlarning yozuvchilar uyushmasi tuzilmalari bilan keng ko’lamli hamkorlik yo’lga qo’yildi. Dunyo miqyosida tanilgan adib Sulton Rayev chin ma’noda o’zbek xalqining ham yozuvchisidir. Uning o’zbek tilida chop etilgan “Tanlangan asarlar” kitobi adabiyotimiz xazinasidan mustahkam o’rin oladi.

yodda saqlaydi. Zero, yirik jamoat arbobi, ulug’ yozuvchi xalqlarimiz o’rtasidagi tinchlik va totuvlikni saqlash, do’stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, adabiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga beqiyos hissa qo’shgan.


O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi “Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to’g’risida”gi qaroriga binoan, adib yubileyini o’zbekistonliklar ham qirg’iz xalqi kabi ko’tarinki kayfiyatda nishonlagani, poytaxtimiz markaziy ko’chalaridan biriga nomi berilib, haykali o’rnatilgani ham adibga yuksak ehtirom namunasidir.

Turkiy tili davlatlar hamkorlik kengashi 2022-yilda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etdi va O’zbekiston Chingiz Aytmatov nomzodini ushbu mukofotga ko’rsatdi. Shu tariqa ulug’ yozuvchi xalqaro mukofotning birinchi sovrindori bo’ldi. Buning barchasi ikki xalq do’stligining yana bir isbotidir.

Jahonda asarlari eng ko’p o’qiladigan adibning porloq xotirasiga bag’ishlangan anjumanda ikki xalq o’rtasidagi adabiy aloqalar tobora keng tus olayotgani, Chingiz Aytmatov ijodi xalqlarimiz do’stligi va hamjihatlikni timsoli ekanini alohida e’tirof etildi. Uning asarlarida tarannum etilgan egzuglik g’oyasi umrboqiy, adib yaratgan xalqchil adabiy qahramonlar obrazi butun turkiy xalqlar dunyoqarashi va xarakteri uchun xos ekanini ta’kidlandi.

Anjumanda ishtirokchilar tomonidan Chingiz Aytmatov tavalludining 100 yilligini jahon miqyosida nishonlash va 2028-yilni “Chingiz Aytmatov yili” deb atash bo’yicha BMTga taklif jo’natishga kelishib olindi.

Shuningdek, nufuzli anjuman doirasida Roza Aytmatovaning “Xat keldi”, Qanibek



Muallif o’z kitobida tarixiy voqealarni ijodiy qayta ishlab, zamonaviy o’quvchi dunyosiga yaqinlashtirgan.

Kun davomida mehmonlar Abdulla Qodiriy ijod maktabida adibning “O’tkan kunlar” romani qirg’izcha nashri taqdimotida ishtirok etdi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy uy-muzeyi, adib yashagan muhit bilan tanishdi, ijodxonasida hayoti va ijodi haqida suhbat qurdi.

Qirg’izistonlik adiblar Jizzax va Samarqand viloyatlarida ham bo’lishi ko’zda tutilgan.

2019-yili Toshkentda O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Qirg’iziston Milliy Yozuvchilar uyushmasi o’rtasida hamkorlik memorandumi imzolangan edi. Ikki tomonlama adabiy aloqalar rivojiga xizmat qilayotgan hujjat doirasida qator uchrashuv, muloqot va tashriflar amalga oshirilmoqda.

2022-yilda nashr etilgan “Turkiy adabiyot durdonalari” 100 jildli asarlar majmuasining 9 jildi qirg’iz adabiyotiga bag’ishlangan. Buni qirg’iz ijodkorlari o’zlariga yuksak hurmat namunasi sifatida qabul qildi. To’plamda qirg’iz adabiyotining mumtoz vakillariyu hozir ijod bilan shug’ullanayotgan shoir va yozuvchilariga alohida e’tibor berilgan. Tugalboy Sidiqbekovning “Ko’k yalov”, To’lan Jo’ldo’shiyevning “Manas”, Qosim Sulaymonovning “Vahshiylar saltanati” romanlari majmua uchun maxsus tarjima qilingan.

— O’zbekiston Prezidentining Markaziy Osiyo davlatlarini yaqinlashtirishga qaratilgan siyosati nafaqat xalq diplomatiyasi, balki mintaqa yetakchilari o’rtasidagi hamkorlik strategiyasining mazmunini belgilab bermoqda, — deydi Qirg’iz Respublikasida xizmat ko’rsatgan madaniyat arbobi, Qirg’iziston, O’zbekiston va Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmalari a’zosi Begijon Ahmedov. — Bu g’oya mintaqa xalqlari tomonidan ham chin qalbdan qo’llab-quvvatlanmoqda. Ushbu jarayonda ziyolilar — ijodkorlar, olimlar, mutafakkirlar, jurnalistlar, teatr va kino arboblari eng muhim ma’naviy ko’priki vazifasini bajarishi kerak. Shunday bo’lyapti ham. Chingiz Aytmatov, To’lagan Qosimbekov, Mar Boyjiyev, Murza G’aparov singari iqtidorli qirg’iz yozuvchilari asarlari o’zbek do’stlarimiz tomonidan sevib o’qilgani ham ruhiyatimiz, qarashlarimiz yaqinligi belgisi. O’tgan yili atog’li yozuvchi, davlat va jamoat, madaniyat arbobi, mohir diplomat Sulton Rayevning “Tanlangan asarlar”i o’zbek tilida chop etilgani ham fikrimizni isbotlaydi.

Darvoqe, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan Xalqaro TURKSOY tashkiloti bosh kotibi, Qirg’iziston xalq yozuvchisi, davlat va jamoat arbobi, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faxriy a’zosi Sulton Rayevning “Tanlangan asarlar” kitobi haqida alohida to’xtalmasak bo’lmas.

— Mamlakatimizda “Adabiy do’stlik —

Sulton Rayevning “Tanlangan asarlar”i O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop qilingan bo’lib, uning adibning “To’fon” romani, “Quyosh tutilgan kunda” nomli qissasi, beshta sahna asari, o’nga yaqin hikoyasi kiritilgan. Asarlarni qirg’iz tilidan Ahmadjon Meliboyev, Zuhridin Isomiddinov, Jabbor Eshonqul, Avliyoxon Eshon, Dilfuza Qarshiboyeva, Hilola Abdusalomova, Erkin Boynazarov, Abdug’ani Abdug’afurov kabi adib va tarjimonlar ona tilimizga o’g’irgan.

— Qirg’iz yurtida o’zbeklar orasida ulg’ayganman, — degan edi kitob taqdimoti marosimida Sulton Rayev. — O’zbek tili menga ona suti bilan kirgan tildir. Bugun O’zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan olamshumul o’zgarishlar yuz bermoqda. O’zbekiston erishayotgan yutuqlar bu mamlakatda kechayotgan ulkan yangilanish jarayonlarining amaliy natijasi. O’zbekiston dunyoning rivojlangan davlatlari bilan bo’ylashmoqda. Buyuk Sohibqiron Amir Temur davrida bu diyor qanchalik shon-shavkatga burkangan bo’lsa, hozir ham O’zbekiston shunchalik yuksakka intilmoqda. Bularning zamirida Prezident Shavkat Mirziyoyevning adabiyot, ma’naviyat, ma’rifatga bo’lgan e’tibori turibdi. Bugun men uchun quvonarli kun. Kitobim Alisher Navoiy tilida chop etildi. Kamtarona mehnatlarimning yuksak e’tirofi uchun chin qalbidan minnatdorlik bildiraman.

Turkiy xalqlarning faxri va iftixori bo’lgan Chingiz Aytmatov o’z vaqtda odamzodni insoniylik maqomiga qaytarish bugunning hal qiluvchi vazifasidir, deb bong urgan. Taqdimotda o’zbek adiblari tomonidan Sulton Rayev o’z ustozining mohiyati tobora ortib borayotgan mana shu o’g’itini qalbiga jo’ etgan holda, noyob insoniy tuyg’ularni baland pardalardan tarannum etib, zamonamizning yer yuzini, odamzod qalbini ma’naviy to’fonlardan asrash uchun mehr-oqibat, yaxshilik, muhabbat va adolat, odob va or-nomus kabi azaliy qadriyatlarini qat’iyat bilan himoya qilib kelayotgan zabardast adibi ekani ta’kidlandi.

Qirg’iz xalqi bilan madaniy aloqalarimiz, madaniyat kunlarining ahamiyati haqidagi fikrlarimizni bir maqolaga sig’dirib bo’lmaydi. Shu o’rinda Chingiz Aytmatovning quyidagi fikrlarini keltirsak: “Qadimiy o’zbek madaniyati o’zining ajoyib yutuqlari bilan azaldan ham mashhur. O’zbeklar O’rta Osiyoda tengi yo’q irrigator, dehqon sifatida tanilgan. O’zbek me’morlari fursunkor Samarqand, Buxoroni bunyod etdilar. O’zbek xalqi orasidan o’rta asrning mashhur astronom olimi Ulug’bek, shoir Alisher Navoiy yetishib chiqdi... Vizantiya madaniyati rivojida rimliklar qanday rol o’ynagan bo’lsalar, o’zbeklar ham O’rta Osiyo xalqlari madaniyatiga ana shunday ta’sir o’tkazdilar”.

Bugun O’zbekiston va Qirg’iziston o’rtasidagi hamkorlik munosabatlari tarixiy jihatdan chuqur ildiz otib, ikki xalqning madaniy, iqtisodiy va siyosiy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Madaniyat, san’at, adabiyot, ta’lim va turizm sohasidagi aloqalarimiz davlatlarimiz o’rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirishning muhim poydevori bo’lib qolaveradi.

Shunday o’ylar bilan ishga kelayotganimda yo’limni yoshi oltmishdan oshgan kishi to’sdi. Yonida o’zi tengqur ayol. Yelkaga osib olgan safarxaltasi va yuz-ko’zidan ularning mehmon ekanini bilish qiyin emasdi. Boyagi kishi menga juda tanish suxan bilan Amir Temur muzeyi va xiyoboni qaydari ekanini so’radi. Ularga yo’l ko’rsatib, qayerdan ekanini bilan qiziqdim. Taxmin qilganimdek, qo’shni Qirg’iz Respublikasidan kelgan sayyohlar ekan. Chol-kampir keksayganda bir sayohat qilaylik debdi. Bahonada Amir Temur muzeyini tomosha qilish, uning mahobatli haykalini o’z ko’zlari bilan ko’rish maqsadida ekan. Mehmonlarga yo’l ko’rsatib, ishxona tomon kelarkanman, xayolimdan shunday o’yo’ o’tdi: “Dunyo qanchalik turianib-tuslanmasin, o’qildilar o’zgarmaydi. Markaziy Osiyo ruhi Samarqand ruhini qayta uyg’otadi. Dunyo xalqlari esa Temur bobomizdag ulug’larimizni yo’qlab kelaveradi”.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

“Yangi O’zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O’zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas’ul.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446.
36811 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog’oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O’zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko’chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko’chasi, 85-uy

O’za yakuni — 00:15 Topshirildi — 00:45